

# RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA ICHKI TURIZM FAOLIYATI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI BOSHQARISH USULLARI

**Turopov Maqsudjon**

Toshkent arxitektura - qurilish universiteti  
tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasining ahamiyati va uni samarali boshqarish zarurati ilmiy tahlil qilingan. O'zbekistondagi transport infratuzilmasining holati, uning ichki turizm salohiyatiga ta'siri va mavjud muammolar tahlil qilingan. Jumladan, jamoat transporti xizmatlarining kam qamrovliligi, temir yo'l qatnovlarining notengligi, turistik marshrutlarga yo'llar sifatining pastligi kabi omillar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** jamoat transporti, temir yo'l qatnovi, turizm logistikasi, infratuzilmani boshqarish, transport klasterlari, raqamli transport tizimlari, davlat-xususiy sheriklik, aqlli transport, turistik marshrutlar.

**Аннотация.** В данной статье проведен научный анализ значения транспортной инфраструктуры и необходимости ее эффективного управления в развитии внутреннего туризма в Узбекистане. Проанализировано состояние транспортной инфраструктуры Узбекистана, ее влияние на потенциал внутреннего туризма и существующие проблемы. В частности, указаны такие факторы, как недостаточное покрытие услуг общественного транспорта, неравномерность железнодорожных перевозок, низкое качество дорог до туристических маршрутов.

**Ключевые слова:** общественный транспорт, железнодорожное сообщение, туристическая логистика, управление инфраструктурой, транспортные кластеры, цифровые транспортные системы, государственно-частное партнерство, интеллектуальный транспорт, туристические маршруты.

**Annotation.** This article provides a scientific analysis of the importance of transport infrastructure in the development of domestic tourism in Uzbekistan and the need to effectively manage it. The state of transport infrastructure in Uzbekistan, its impact on the potential of domestic tourism and existing problems have been analyzed. Factors such as low coverage of public transport services, uneven rail traffic, and low quality of roads up to tourist routes have been cited.

**Keywords:** public transport, rail transport, tourism logistics, infrastructure management, transport clusters, digital transport systems, public-private partnership, smart transport, tourist routes.

**Kirish.** Raqamlashtirish sharoitida ichki turizm faoliyati samaradorligini ta'minlashda transport infratuzilmasi hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda. Turistik hududlarga qulay, xavfsiz va muntazam transport qatnovlarini tashkil etish, logistika xizmatlarini takomillashtirish, transport boshqaruv tizimlarini

modernizatsiya qilish – ichki turizm imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishning asosiy shartlaridandir. Aks holda, turistik maskanlar qanchalik jozibali bo‘lmasin, agar u yerga yetib borishda qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa, aholining ushbu xizmatlardan foydalanish ehtimoli pasayadi.

Transport infratuzilmasiga oid mavjud muammolar ko‘pgina hollarda ichki turizm salohiyatini cheklab kelmoqda. Jumladan, ayrim viloyatlar va tumanlarda transport yo‘llarining yomon holati, yo‘lovchi tashish xizmatlarining kamquvvatligi, marshrutlarning nomutanosibligi, axborot va navigatsiya xizmatlarining yo‘qligi aholi va mahalliy sayyohlar uchun noqulayliklar tug‘dirmoqda. Shu sababli, ushbu sohani faqat transport qurish yoki ta‘mirlash bilan emas, balki samarali boshqarish, innovatsion yechimlar, raqamli texnologiyalar va fuqarolar ehtiyojini hisobga olgan holda modernizatsiya qilish orqali rivojlantirish talab etiladi.

Jahon amaliyotida transport va turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniq o‘rnatilgan. Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportidan Samarqand yoki Buxoro singari tarixiy shaharlarga qator zamonaviy qatnovlar yo‘lga qo‘yilgani turizm oqimini oshirishda qanchalik samara bergan bo‘lsa, ayrim hududlarda transport infratuzilmasining rivojlanmagani natijasida hatto turistik salohiyat yuqori bo‘lgan joylar ham diqqatdan chetda qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, transport infratuzilmasi va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish ichki turizmning barqaror rivojlanishi uchun asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi global iqtisodiy va ijtimoiy sharoitda ichki turizmni rivojlantirish nafaqat milliy madaniyat va tarixni targ‘ib qilish, balki aholi farovonligini oshirish, hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishning samarali vositasiga aylanmoqda. Turizm sohasi barcha sohalar - transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning o‘sishi ushbu sohalarida ham iqtisodiy faollikni oshiradi. Shu ma’noda, ichki turizmni rivojlantirish – bu faqat turizm sohasini emas, balki butun hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish deganidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Sh.Q. Rizoev o‘zining «Ichki turizmni rivojlantirishda infratuzilmaning roli» nomli tadqiqotida hududiy transport infratuzilmasi va turistik salohiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib, asosiy e‘tiborni hududlararo avtomobil qatnovlariga qaratadi.[1] Unda ta’kidlanishicha, turizm salohiyati yuqori bo‘lgan joylarda transport logistikasining yaxshi tashkil etilmagani, mavjud infratuzilmaning eskirganligi sayyohlar oqimini cheklab qo‘yadi. Biroq muallifning tadqiqotida raqamli boshqaruv texnologiyalari va zamonaviy transport boshqaruv modellariga yetarli e‘tibor berilmagan.

K.X. Turaev «Transport logistikasi va turizm aloqalari» nomli asarida transport logistikasini takomillashtirishning turizm rivojiga ta’sirini iqtisodiy jihatdan asoslab beradi. Uning nazariyasida turizmni transport logistikasining bir qismi sifatida ko‘rish va ushbu tizimni klaster asosida boshqarish taklif etilgan. Muallif qatnov jadvallari, yo‘nalishlar optimallasuvi va xarajatlarning kamaytirilishi orqali aholining turizmga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkinligini

asoslaydi.[2] Ammo Turaevning ishida mavjud infratuzilmaning hududiy tafovuti va ularni reyting asosida baholash tizimi ishlab chiqilmagan.

M.Abdurahmonov va hammualliflar tomonidan tayyorlangan «O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari» mavzusidagi ilmiy maqolada aholi turizmga bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari o‘rganilgan. Unda aholining ko‘proq dam olish kunlari sayohatga chiqishni xohlashi, lekin transport tizimining noqulayligi va arzon qatnov imkoniyatlarining cheklanganligi sababli bu ehtiyoj realizatsiya qilinmasligi ta’kidlanadi.[3] Shu bilan birga, mualliflar tomonidan xususiy transport operatorlari va davlat o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlariga yetarli tahlil berilmagan.

M.I. Abdullaev o‘zining «Turizm infratuzilmasini shakllantirishda transport tizimining o‘rni» mavzusidagi tadqiqotida mamlakatdagi yo‘l tarmoqlarining holati, ta’mirlanish darajasi va ularning turistik xo‘jaliklarga bog‘liqligini o‘rgangan. Unga ko‘ra, infratuzilmani rivojlantirishda faqat markaziy budget mablag‘lari bilan emas, balki xususiy sarmoyalarni jalb qilish orqali transport infratuzilmasini «turizm xablari» asosida rivojlantirish zarur.[4] Biroq muallif ushbu modelda transport tizimi boshqaruvidagi byurokratik to‘siqlar va joylardagi mablag‘ taqsimoti muammolariga yetarlicha e’tibor qaratmagan.

S.S. Juraev o‘z tadqiqotida mahalliy aholining turizmdagi ishtiroki va transport xizmatlari sifatining o‘zaro bog‘liqligini ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Uning ta’kidlashicha, aholining ichki turizmga jalb etilishi ko‘p jihatdan qulay, uzluksiz va ishonchli transport xizmatlariga bog‘liq.[5] Ammo muallif o‘z ishida jamoat transporti va xususiy sektor o‘rtasidagi integratsiya masalalariga yetarlicha to‘xtalmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Raqamlashtirish sharoitida ichki turizm faoliyati rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarish usullarini ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Raqamlashtirish sharoitida mamlakatdagi ko‘pgina turistik ob’ektlar aholi yashaydigan markazlardan uzoqda joylashgan. Bu joylarga qulay, xavfsiz, arzon va muntazam transport qatnovi bo‘lmagani uchun, aholi o‘rtasidagi turistik faollik past darajada qolmoqda. Jumladan, yirik shaharlar va tuman markazlari o‘rtasidagi avtobus yo‘nalishlari kam, temir yo‘l qatnovlari cheklangan, yo‘llar sifatsiz va ko‘p hollarda ta’mirtalab holatda. Bundan tashqari, transport xizmatlarida raqobatsizlik, navbat va yo‘l harakati haqida axborotning yetarli emasligi, raqamli texnologiyalarning yetishmasligi ham aholi uchun noqulaylik tug‘diradi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi holati muhim omillardan biri hisoblanadi. Jadvallarda keltirilgan ma’lumotlar ushbu sohadagi mavjud muammolarni va rivojlanish ehtiyojlarini yaqqol ko‘rsatadi. O‘zbekistonda asfaltlangan yo‘llar ulushi 62% ni tashkil etmoqda, bu Yevropaning o‘rtacha ko‘rsatkichi (85%) dan ancha

past. Bu ko‘plab hududlarda, ayniqsa, turistik ob’ektlarga olib boruvchi yo‘llarning yomon holatda ekanligini anglatadi.

**Jadval**

**O‘zbekistonda transport infratuzilmasining holati [6]**

| <b>№</b> | <b>Ko‘rsatkichlar</b>                                   | <b>O‘zbekiston<br/>(2024 yil)</b> | <b>Me‘yorlar<br/>(YeI bo‘yicha)</b> |
|----------|---------------------------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------|
| 1        | Asfaltlangan yo‘llar ulushi (%)                         | 62                                | 85                                  |
| 2        | Jamoat transporti qatnovi mavjud turistik ob’ektlar (%) | 48                                | 80                                  |
| 3        | Shaharlararo avtobus yo‘nalishlari (ta)                 | 213                               | 400                                 |
| 4        | Temir yo‘l qatnovi mavjud xududlar, %                   | 39                                | 75                                  |
| 5        | Turistik maskanlargacha yo‘l sifati (%)                 | 2,6                               | 4,2                                 |

Jamoat transporti qatnovi mavjud bo‘lgan turistik ob’ektlar foizi ham past – atigi 48%. Bu degani, aholining ko‘p qismi o‘z hisobidan yoki xususiy transportda sayohat qilishga majbur. Bu esa ommaviy turizmni cheklaydi.

Shaharlararo avtobus yo‘nalishlari 213 tani tashkil etgan holda, yuqori talabni qondirish uchun yetarli emas. Temir yo‘l qatnovi esa faqat 39% hududda mavjud, bu esa yirik va tarixiy ahamiyatga ega shaharlar o‘rtasidagi bog‘lanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, quyidagi xulosalarni ta’kidlash mumkin:

-turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi yetarlicha samarali ishlamaydi.

-transport va turizm o‘rtasidagi integratsiya zaif, marshrutlar ehtiyojga qarab tuzilmagan.

-temir yo‘l va jamoat transporti xizmatlari turistik oqimga mos emas.

**Xulosa.** Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, samarali transport tizimisiz hech qanday turizm modeli uzoq muddatli va barqaror rivojlanmaydi. Xususan, transport xizmatlarining keng qamrovli, raqobatbardosh va raqamlashtirilgan bo‘lishi ichki turizmni ommaviylashtirishning asosiy shartlaridan biridir. Turizmni joylashuv nuqtalaridan maqsadli nuqtalarga olib boruvchi «turizm yo‘llari», «aqlii qatnov platformalari», «yo‘l infotermalari», «multimodal logistika markazlari» kabi elementlar zamonaviy infratuzilmaning ajralmas qismiga aylanmog‘i lozim.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalarni berish mumkin:

1. Transport infratuzilmasining yetarlicha samarasizligi. Ichki turizmning barcha hududlarda teng rivojlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Ayniqsa, chekka va tarixiy ahamiyatga ega hududlarda asfalt yo‘llar yetishmovchiligi, qatnov jadvallarining muntazam emasligi va jamoat transportining mavjud emasligi kuzatilmoqda.

2. Temir yo‘l va avtobus qatnovlari turistik salohiyatga mos emas. Hududlar kesimidagi tahlillar shundan dalolat bermoqda. Masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi turistik markazlar yuqori talabga ega bo‘lsa-da, bu hududlardagi qatnovlar hajmi hali past darajada qolmoqda.

3. Transport va turizm o'rtasidagi institutsional hamkorlik zaif. Turizm agentliklari, mahalliy hokimiyatlar va transport tashkilotlari o'rtasidagi muvofiqlashtiruvchi tizim hali shakllanmagan. Natijada marshrutlar va qatnovlar aholi ehtiyojlaridan uzoqlashgan holda shakllantirilmoqda.

4. Innovatsion va raqamli yechimlar joriy etilmagan. Turistik harakatni boshqarishda navigatsiya, mobil ilovalar, onlayn chipta sotish, interaktiv xaritalar kabi yechimlar amaliyotda keng qo'llanilmayotgani transport xizmatlarini qimmat, noqulay va samarasiz qilib qo'yayotir.

5. Mahalliy aholining ichki turizmga ishtirokini rag'batlantirish uchun infratuzilma yetishmaydi. Turizm faqat xorijiy sayyohlar uchun emas, balki mahalliy aholi uchun ham barobar qulay va qiziqarli bo'lishi kerak. Ayniqsa, oziq-ovqat, suv, jamoat transporti va sanitariya infratuzilmalari turistik marshrutlarda yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda, transport infratuzilmasini samarali boshqarish - ichki turizmni rivojlantirishda «dvigatel» vazifasini bajaradi. Transport tizimi faqat harakat vositasi emas, balki turistik tajribaning asosiy qismiga aylanishi kerak. Agar transport infratuzilmasi innovatsion, moslashuvchan va fuqaro ehtiyojlariga qarab boshqarilsa, O'zbekistonda ichki turizm faqat iqtisodiy emas, balki madaniy, ijtimoiy va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi kuchli tarmoqqa aylanishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Rizoev Sh.Q. (2021). Ichki turizmni rivojlantirishda infratuzilmaning roli. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.
2. Turaev K.X. (2020). Transport logistikasi va turizm aloqalari. Toshkent: Iqtisodiyot.
3. Abdurahmonov M. va boshqalar. (2022). "O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish yo'nalishlari". Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №1.
4. Abdullaev M.I. (2019). "Turizm infratuzilmasini shakllantirishda transport tizimining o'rni". TDIU ilmiy ishlar to'plami, №3.
5. Juraev S.S. (2020). "Ichki turizmga aholi ishtiroki va transport sifatining o'zaro bog'liqligi". Iqtisodiy nazariya va amaliyot, №4.
6. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari